



YOSHLARDA KREATIVLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

I. Mamatov

*Qo`qon davlat pedagogika instituti
Tasviriyy san`at va muhandislik grafikasi
o`qituvchisi*

X. In`omova

*Tasviriyy san`at va muhandislik grafikasi
1 -bosqich talabasi*

Kirish. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi farmoniga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun milliy kadrlar va namunali o'qituvchilar zaxirasini shakllantirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos N.Xomskiy tomonida kashf qilingan. "Kompetensiya" atamasining umumiy ma'nosi "uquv", "qobiliyat", "mahorat" kabi tushunchalar qatoriga kiradi.

Kreativlik tushunchasining lug'aviy ma'nosi ingliz tilida "creative" - "yaratish", "creative" -- "yaratuvchi", "ilodkor" ma'nolarini anglatadi. Kreativlik tushunchasi keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, bu insonning bir vaqtning o'zida yangi va qimmatli g'oyalarni yaratish va tadbiq qilish qobiliyatidir.

Kreativlik ijtimoiy, ma'naviy sohalarining barchasiga taaluqli bo'lib, uni ilmiy va badiiy turga bo'lish mumkin. Har bir badiiy san'at asari xoh u tasviriy san'at asari namunasi bo'lsin, xoh badiiy adabiyot asarlari bo'lsin barchasi insonning kreativ qobiliyati mevasidir. Bu borada haykaltarosh Mikelanjeloning quyidagi iqtibosini keltirish mumkin.

"Men marmar ichida farishtani ko'rdim va uni ozod qilguncha o'yib tashladim."

Kreativlikka ilmiy sohada erishilgan yutuqlar, texnologiyalar, biznes start-uplar ham misol bo'la oladi. XX asrning 60-yillariga kelib, ilodiylikning 60dan ortiq ta'riflari ishlab chiqildi. Ijodiylik ta'riflarini tahlil qilish orqali ularni 6 ta turga ajratish mumkin. Geshtaltik ta'rif (ijodiy jarayonni mavjud geshtaltlarni buzib, yaxshirig'ini tuzish sifatida

a'riflanadi), innovatsion (yangi) ta'rif (so'nggi natijaning yangiligi bo'yicha ijodiylikni baholashga yo'naltirilgan), estetik yoki ekspressiv (ijod qiluvchining o'zini-o'zi ifodalashga ahamiyat beruvchi), psixoanalitik (ijodiylikni "u", "men" va "ideal - men" o'rtasidagi o'saro munosabat deb ta'riflovchi), muammoli (ilodiylikni masalalar yechish jarayoni deb aniqlaydigan), "umuminsoniy" bilimlar zaxirasini to'ldirish.

Ijodiy fikrlash jarayoni bir necha bosqichdan iborat. Bunda hal qilinishi kerak bo'lgan masala aniqlanadi, masala yoki muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan barcha bilimlarni tadbqiq qilishga intilinadi, masalaga taaluqli gipoteza olg'a suriladi, yechim to'g'risida bir nechta farazlar ishlab chiqiladi, turli variantlar o'zaro hayolan solishtirilib, eng samaralisi aniqlanadi va amalda sinab ko'riladi, natija qanoatlantirganda tafakkur jarayonni yakunlaydi. Ijodiy tafakkur jarayonida bilim va tajribalarning keng ko'lamliligi muhim rol o'ynaydi. Tajriba va bilimlar qancha ko'p bo'lsa, masalani hal qilish shuncha oson bo'ladi. Misol uchun adabiyotni oladigan bo'lsak, yosh ijodkorda kreativlikni rivojlantirishda badiiy adabiyotning o'rni katta hisoblanadi. Bola qanchalik ko'p kitob o'qisa, u realistik yoki fantastik asar bo'lishidan qat'i nazar unda dunyo haqidagi bilim va tasavvurlar shunchalik ko'p bo'ladi. Tasavvuriy tafakkur ijodiylikning muhim bo'lagi hisoblanadi. Masala yechimi yoki biror bir yangi g'oya avval tasavvurda paydo bo'ladi, keyin yaratiladi. Ba'zida, ijodkorlar jarayonni hech qanday g'oyasiz boshlaganlarida ham, jarayon oxirida yaxshi natijaga erishilishi haqida ta'kidlashadi. Misol uchun tasavvufiy ijokor, faylsuf Jaloliddin Rumiy va boshqa ko'plab yozuvchilar o'z asarlarini yozayotganlarida masalaga oid fikrlar qalamidan o'zidan o'zi to'kilishi haqida yozgan edi. Bu holatda ham aslida, insonning hayoti davomida yig'ilgan ong osti ma'lumotlarining barchasi g'ayriixtiyoriy va ixtiyoriy ravishda safarbar etilishi natijasi hisoblanadi.

Ijodiy fikrlashni o'stirishning asosiy omillaridan biri bu -- kuzatuvchanlikdir. I.P.Pavlov kuzatuvchanlik bilishning asosiy sharti deb hisoblardi. Pavlov shahrida u tashkil qilgan biologiya stansiya binosining old tomoniga "Kuzatuvchanlik va yana kuzatuvchanlik" deb bejiz yozilmagan edi.

K. D.Ushinskiy , -- " Agar ta'lim bolalarning aqlini o'stimoqchi bo'lsa, ularning kuzatuvchanlik qobiliyatini mashq qildirishi kerak bo'ladi." --degan edi.

Shuning uchun ham o'sib kelayotgan yosh avlodda kuzatuvchanlikni tarbiyalash pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba yoshlarda ijodiylik kompetensiyalarini oshirishda ijodiy erkin muhit ayniqsa, muhim hisoblanadi. Chunki yangi yangi narsalarni kashf qilish va yaratishda to'sqinlik qiluvchi, boshlay olmaslikka sabab bo'luvchi narsa bu perfektsionizmdir. ("perfectionism" - mukammallikka intilish). Yosh ijodkorda tavakkalchilik va qat'iyatlilik fazilatlarini shakllantirish orqali undagi yangidan-yangi, original g'oyalarni yuzaga chiqarish mumkin. "Boshlash keyin muammalshtirish" g'oyasi asosida ulardagi qat'iyatsizlikni jasoratga aylantirish lozim. Keyingi vazifa, ularning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish va o'z izhlariida mamnun bo'lish hissini uyg'otish orqali yana yangi marallarni zabt etishga ishtiyoq va motivatsiya berishdir.

Ijodiylik komponentlaridan yana biri bu -- qiziquvchanlik. Qiziquvchanlik insonga yangi narsalarni kashf qilish va o'rganishga qaratilgan kuchdir. qiziquvchanlik qachon yuzaga keladi? Qachonki savol paydo bo'lganda. O'qituvchi yosh ijodkorda biror bir masala yuzasidan savollar berish orqali undagi qiziquvchanlikni oshirishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi XXI asr, shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda, texnologiyalar tezkor taraqqiy etayotgan zamonda yoshlarning kreativlik va intellektual salohiyatlarini kamol toptirish orqali jamiyatimizning ham ijtimoiy, ham ma'naviy rivojiga katta hissa qo'shgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Umumiy psixologiya" (P.ivanov, M.Zufarova)
 2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022- 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son farmoni.
- "kreativlikning mazmunimohiyati va uni rivojlantirishning pedagogik-psixologik" shart-sharoitari" (Zulhumor Mirzayeva)